# KASB-HUNAR DIPLOMIGA EGA BO’LISHDI



1-kasb-hunar maktabi dastlab Markaziy Farg’ona cho’llarini o’zlashtirishda qatnashadigan kadrlar tayyorlaydigan maskan sifatida tashkil etilgan. Mana bugungi kunda esa xalq xo’jaligining turli sohalari uchun kadrlar yetishtirmoqda.

Bugun maktabning 220 nafar bitiruvchilariga egallagan kasblari bo’yicha o’qiganliklari haqida diplomlarini qo’llariga olishdi.

Tantanali tadbirda tuman hokimligi, prokuraturasi mas'ullari qatnashdilar.

Tashrif buyurgan mehmonlar va mezbonlar bitiruvchilarga kelgusida yetuk insonlar bo’lishlarini, egallagan kasblarini yanada mustahkamlashlarini tilashdi. Namunali hulqi va a'lo baholarga o’qigan bir guruh o’quvchilarga maktab ma'muriyatining faxriy yorliqlari topshirildi.

**YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI**

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook,
2023-07-08 18:30:23